KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

NOYABR, 2026



ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
https://konferensiyalar.com

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil).– 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr

Mas’ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya
Mazkur to‘plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar” mavzusidagi XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o‘rin olgan bo‘lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag‘ishlangan.
Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta’lim o‘qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2026-yil
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

TARIX FANLARI

USMONLII TURK YOZMA MANBALARIDA BUXORO AMIRLIGIDA HARBIY TARTIBLAR VA QO‘SHIN TUZILISHI TAVSIFI

Shukurov Tohir
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti, Qarshi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro amirligidagi harbiy tartiblar va qo‘shin tuzilishi Usmonli turk yozma manbalari asosida Turkiyada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, mang‘it qabilasi, muntazam qo‘shin, topchi va sarbozlar, o‘q-yoy, nayza, qilich, oybolta, harbiy-ma’muriy amaldorlar, to‘qsoba.

A DESCRIPTION OF MILITARY REGULATIONS AND ARMY STRUCTURE IN THE EMIRATE OF BUKHARA IN OTTOMAN TURKISH WRITTEN SOURCES

Shukurov Tohir
Doctoral student of Karshi State University, Karshi

Annotation. In this article, the military regulations and army structure in the Emirate of Bukhara have been analyzed based on Ottoman Turkish written sources, relying on scientific research conducted in Turkey.

Keywords: Bukhara Emirate, Manghit tribe, regular army, artillerymen and sarbaz, bow and arrow, spear, sword, axe, military-administrative officials, toqsoba.

DOI: https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i21/n03

Buxoro xonligida XVIII asr o‘rtalarida ichki nizolarning avj olishi va Eronning tashqi hujumlari natijasida Ashtarxoniylar sulolasi siyosiy jihatdan zaiflashib qolganligidan foydalanib taxtni Mang‘it qabilasi yetakchisi Muhammad Rahim egallaydi. Oqibatda Ashtarxoniylar hukmronligi tugatiladi. Mahalliy manbalar bergan ma’lumotlarga qaraganda Buxoroda Mang‘itlar sulolasi hukmronligining dastlabki davrlarida amirlikda muntazam qo‘shin mavjud emas edi. Buxoro amirligidagi o‘z sonli harbiylarning asosiy vazifasi markazda amir va uning a’yonlarini xavfsizligini ta’minlash hamda shahar ichida osoyishtalikni saqlashdan iborat edi.

Mamlakat uchun tashqi xavf paydo bo‘lganida yoki urush harakatlari boshlanganda amirning farmoni bilan oddiy mehnatkash xalq orasidan lashkar yig‘ilgan va bevosita harbiy harakatlarga safarbar etilgan. Buxoro davlatining qo‘shin tuzilishi asrlar davomida o‘zgarmagan, xususan, temuriylar saltanati inqirozi davridan - XIX asrning I choragigacha bu borada jiddiy biror islohot amalga oshirilgani kuzatilmaydi[1]. XVIII asrda amirlik qo‘shinlari asosan otliq askarlardan iborat bo‘lganligi keltiriladi. Otliq qo‘shin navkarlar va qoracherik deb nomlanuvchi harbiy bo‘linmalardan iborat bo‘lgan. Qo‘shinlar to‘p, jazoyil, qilich, pilta miltiq, nayza va o‘q-yoy bilan qurollanib, to‘pchiboshiyi lashkar yoki amir tomonidan boshqarilgan.

XIX asrning 30-yillarida Muhammad Rahimxon (1753-1758) harbiy sohada kichik islohotlar qildi. Ammo, Buxoro amirligida asosiy harbiy islohot Amir Nasrullo (1826-1860) davlatni boshqargan davrda amalga oshirildi. 1837-yilda Nasrullo Buxoroda muntazam 40

mingga yaqin harbiy qo‘shin – sarbozlar (sipoh) qismini tuzdi. Ularning muayyan qismi otliqlardan, hamda piyoda jangchilardan iborat edi. Sarbozlar uchun maxsus kiyim (qizil kurta, oq shalvor va qalpoq) joriy etildi. XIX asrning o‘rtalariga kelib 2500 nafarli sarbozning har biri nayzali miltiq, qilich, nayza, o‘q-yoy va to‘pponcha bilan qurollangan edi. Harbiy xizmatdan bo‘sh vaqtlarida yoki dam olish kunlari ular oddiy xalat kiyib yurishlari belgilangan. Buxoro amirlari qo‘shinlariga rus zobitlari tarbiya berib, mashq qildirganlar. Mashq, urush va kiyinish nizomlari ishlab chiqilgan. Sarbozlar uchun hazinadan oyiga uch so‘m kumush tanga mablag‘ (moyana) ajratilgan. Qo‘shin amirlik tasarrufidagi deyarli barcha shaharlarida, ayniqsa, chegara shaharlar (Jizzax, O‘ratepa, Qorako‘l, Marv)da joylashtirilgan[2].

1837-yilgi islohot natijasida amir Nasrullo maxsus to‘pchilar qo‘shinini ham tuzdi. To‘pchi va sarbozlar umr bo‘yi harbiy xizmatda bo‘lishlari shart edi. To‘plar yasash uchun chet eldan (asosan eronlik) mutaxassislar jalb qilindi. Shunday bo‘lsada Buxoro amirligi qo‘shinlarida miltiqlar va to‘plar yetarli darajada emasdi. Qolaversa Nasrullodan so‘ng amir Muzaffar davrida harbiy islohot o‘tkazilmaganligi oqibatida amirlik qo‘shinlari zamonaviy harbiy texnikalardan foydalanishda Yevropa va Rossiyadan ancha orqada qolgan edilar. Bu jarayon XIX asrning 2-yarmida o‘z ta’sirini ko‘rsatdi, ya’ni Rossiya imperiyasining amirlikka qarshi harbiy harakatlari muvaffaqiyat bilan yakunlandi.

Xonlikda o‘rta asrchilik boshqaruv tizimining uzoq vaqt saqlanishi taraqqiyot va qo‘shin kuch-qudratiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Qo‘shinda dastlab misdan, XIX asr boshlarida cho‘yandan quyilgan bir necha to‘p bo‘lgan. Sarbozlar o‘q-yoy, nayza, qilich, oybolta kabi qurollar bilan qurollanganlar. Xonlikda qo‘shin asosan otliqlardan tashkil topgan. XVIII asr oxiridagi ma’lumotlarga ko‘ra, xon 10 ming kishilik qo‘shin to‘plash imkoniga ega bo‘lgan. XIX asr 30-yillarida yollanma askarlar soni 19 ming kishi bo‘lib, ular xizmatini turli shahar va harbiy istehkomlarda o‘taganlar. XIX asr o‘rtalarida harbiy qismlar, shuningdek, to‘p va miltiqlar soni ortgan. Umumiy qo‘mondonlik amiri lashkar zimmasida bo‘lgan.

Buxoro amirligi davlat boshqaruvida harbiy-ma’muriy amaldorlar katta o‘rin tutgan[3]. Buxoro amirligida oliy bosh qo‘mondan amir bo‘lib, u qo‘shinni turli darajadagi harbiy amaldorlar yordamida boshqargan. Mamlakat qo‘shini ham Chingizxon va Amir Temur qo‘shinlaridek, 10 minglik korpuslar – tumanlarga bo‘lingan. Ularga no‘yon deb ataluvchi harbiy sarkardalar boshchilik qilgan. Tumanlar o‘z navbatida, minglik, yuzlik, o‘nliklarga ajralgan. Amirlikda qo‘shinni jangga hozirlash, harbiy amaldorlar va navkarlarga maosh to‘lash va boshqa tashkiliy ishlar bilan maxsus amaldor-tavochi shug‘ullangan. Qo‘shinni qurol-yarog‘ bilan ta’minlashga mas’ul bo‘lgan amaldor jevachi bo‘lib, u amirning qurol-aslahalariga ham javobgar hisoblangan. Harbiy amaldorlar va navkarlarga xazinadan beriladigan maoshdan tashqari, harbiy yurishlar paytida qo‘lga kiritilgan o‘ljadan ham ma’lum miqdorda ulush ajratilgan.

Seda Yilmaz Vurgun Buxoro amirligidagi harbiy tartiblar, askarlar va qo‘shin tuzilishi haqida ham qimmatli ma’lumotlar beradi: *“Amirlikda qabila boshliqlari qo‘shin to‘plashda mas’ul edilar. Chunki navkar deb ataladigan askarlar aslida ular tomonidan yig‘ilgan o‘z qabilasining a’zolari edi. Tinchlik davrida bu kuchlarning aksariyati qabila yetakchilarining mulklarida istiqomat qiladi. Ular tinchlik davrida harbiy ishlar bilan yoki harbiy ta’lim bilan shug‘ullanishmasdi. Bu askarlarning tirikchilik manbalari dehqonlardan olinadigan soliqlar tashkil etadi. Urush paytlarida beklar boshchiligida amir qo‘shiniga qo‘shiladilar. Aslida, qo‘shinlarini ikkita asosiy qismga ajratish mumkin. Bulardan birinchisi navkarlar, ikkinchisi esa*

qoracherik deb ataladigan oddiy xalq tomonidan tashkil etilgan harbiy guruhlar. Qoracherik guruhining soni navkarlarga qaraganda ko‘proq. Bu toifadagi askarlar faqat urush paytlarida to‘planadi. To‘da-to‘da qilib hudud yoki qabilaning barcha voyaga yetgan aholisi harbiy xizmatga olingan. Ularning harbiy xizmatga qabul qilishlari uchun ot olib kelish shart emas edi. Ba’zi hollarda ular qurol olib kelishlari shart bo‘lgan. Qora qo‘shinlar aslida zaxira kuchlari bo‘lib, ularning asosiy vazifasi urush davrida turli xil ishlarni bajarish va faqat favqulodda vaziyatlarda jangga kirishgan. Aholini harbiy xizmatga ko‘plab jalb qilish mamlakat iqtisodiy hayotga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Qishloq xo‘jaligida mehnat qiladigan aholining keskin kamayishi xosildorlikni kamayishiga, bu esa ocharchiliklarni keltirib chiqarishiga olib keldi”[4]. Ushbu ma’lumotda amirlikdagi yuqorida qayd etilgan, ya’ni mang‘itlar hukmronligining dastlabki davrida Buxoroda muntazam qo‘shin bo‘lmagan holda, qabila va urug‘ boshliqlari orqali askarlar to‘planganligi, buning uchun qabila va urug‘ yetakchilari mas’ul bo‘lganligi keltirilgan. Shuningdek, xalq ko‘ngillilaridan tuzilgan bu qo‘shinning vazifalari ham keltirilib faqat favqulotda holatlardagina janglarga kirganligi, tinchlik vaqtlarida esa qabila va urug‘ sardorlariga xizmat qilganligi keltirib o‘tilgan.

Dehqonlar, hunarmandlar, kosiblar va boshqa mehnatkash tabaqaning harbiy xizmatda ko‘plab jalb etilishi mamlakat iqtisodiyatiga katta zarar yetkazganligi ham e’tibordan chetta qolmagan. Boisi bu davrda qishloq xo‘jaligida asosiy mehnat qo‘lga bajarilganligi natijasida asosiy ishchi kuchi oddiy xalq edi. Ulardan ham harbiy xizmatda foydalanish qishloq xo‘jaligida ishchi kuchiga bo‘lgan talabning oshishiga, natijada katta yerlarga ishlov berishda bu holat muammoli vaziyatni keltirib chiqarib, hosilni keskin kamayib ketishiga bu esa o‘z navbatida qator yillarda ocharchilikka olib kelgan.

“Barcha turkiy jamoalarda bo‘lgani kabi Buxorodagi jamoalarda ham otliq qo‘shinga harbiy jihatdan katta ahamiyat beriladi. Askarlar turli rang va shakldagi kiyimlarni kiyishgan. Amirning xos soqchilarining bir qismi bo‘lgan yosh zodagonlardan iborat yana bir to‘da boy kiyingan hamda yanada tartibli ko‘rinardi. Urush qurollari va ulardan foydalanish tartiblarning aniq sistemasi yo‘q edi. Askarlardan bir nechtasi ba’zan bitta ot mingan. Otlar bilan birga tuya va eshaklardan ham foydalanilgan.

Buxoro amirligidagi turli etnik kelib chiqishlar qo‘shinda ham aks etgan. o‘zbeklar, turkmanlar qo‘shin tarkibida asosiy o‘rin olgan. Jismoniy xususiyatlari bilan emas, balki uzun qora sochlari bilan ham darhol tanilgan ko‘plab Afg‘onlar ham bor edi. Askarlarning yuqori martabalilarini o‘zbeklar tashkil etardi Ular intizomsiz jang qilishadi, yo o‘zlari uchun, yo do‘stlari uchun uchun jangga kiirishadi. Ularning ajoyib otlari bor edi. Eng jasur chavandoz ovchi deb ataladi.

Buxoroda, shuningdek, yollanma askarlar ham bor. XIX asrning 30-yillarida yollanma askarlarning soni 19 000 kishiga yetgan. Meyendorf hisob-kitoblariga ko‘ra doimiy askarlar taxminan 25 mingga yaqin bo‘lgan. Askarlarning bir qismi safarga chiqayotganda, boshqa bir qismi garnizonlarda xizmat qilardi. O‘ratepa, Jizzax, Samarqand, Qoraqul va Qarshi kabi shaharlarda kuchli garnizonlar zarur edi. Yollanma askarlar uchun yiliga taxminan ellik ming frank sarflanadi.

Buxorolik askarlar sipohiy deb atalgan. Ularning nafaqalari olti tillaga yaqin. Xosberdorlar gvardiya polkiga qaraganda ikki baravar ko‘proq haq oladi. Amaldorlar o‘nboshi, terashboshi (leytenant), pansedboshi (500 kishilik qo‘mondon), to‘qsoba (polk qo‘mondoni), qo‘rg‘onbegi (general-leytenant), dodxoh (hududiy general) va parvonachi (butun qo‘shin

qo‘mondoni) kabi nomlar bilan atalgan[5]. Seda Yilmaz Vurgun ushbu ma’lumotida amirlikdagi otliq qo‘shinga to‘xtalib, uning harbiy qismdagi o‘rni alohida ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Shuningdek, askarlarning kyim-kechaklari, qo‘shin tarkibini asosini o‘zbeklar va turkmanlar tashkil etishi, yuqori martabali harbiy amaldorlar xususida ham tadqiqotida tilga oladi. Qo‘shinning soni haqidagi ma’lumotlarida Ye.K.Meyindorfning “Orenburgdan Buxoroga sayohat” asaridan foydalangan. Ye.K.Meyindorf Buxoroda bo‘lgan vaqtlarida amirlikda qancha qo‘shin borligini o‘rgangan va o‘z asarida qayd etgan.

“Barcha amaldorlarga sarkarda unvoni berilgan. Ular pul yoki g‘alla bilan nafaqa olishardi. 500 kishilik polklar kichik bir bayroq bilan boshqalardan ajralib turishardi. 1.000 kishilik har bir polkning bayrog‘i bor edi. Bu ham mingboshi (oliy martabali) tomonidan boshqariladi. Askarlar bilan birga yurishlarda ko‘plab nog‘ora, karnay va surnaylardan iborat orkestr bor va ular ham ko‘plab bayroqlarni ko‘tarib yurishadi. Bayroqchalarda turli rasmlar mavjud... Amir Nasrulloh qabila beklarining kuchini sindirish, ularga bo‘lgan qaramligini iloji boricha kamaytirish va markaziy boshqaruvni kuchaytirish uchun muntazam armiya tashkil etgan. Bu borada uning eng muhim yordamchisi eronlik Abdussamad bo‘lgan. Abdussamadning yordami bilan juda qisqa vaqt ichida Buxoro sarboz deb nomlangan va soni bir necha yuzta bo‘lgan muntazam birliklarga ega qoshin tuzilgan. Yangi tashkil etilgan harbiy kuch (harbiy bo‘linma) formali, qurollangan, o‘qitilgan, intizomli va ulamolarning ta’siridan uzoqlashtirilgan. Bu birlik asosan eronliklar, afg‘onlar, tojiklar va rus harbiy asirlaridan iborat edi. Askarlar ilk bor tashkil etilganida ularning soni taxminan 300 ga yaqin bo‘lgan. Sarbozlar soni hukmdorning kuchiga mutanosib sifatida o‘zgarib turardi. 1840-yilda Qo‘qon bilan bo‘lgan urushda Peshagar qal’asi qamalda muvaffaqiyatli sinov o‘tkazganlaridan so‘ng, amir Nasrullo ularning sonini qisqartirdi qisqa vaqt ichida 1000 taga yetkazgan. 1842-yilda amirlikda bo‘lgan Xanikov muntazam armiyasining sonini 500 ta deb bergan; ulardan 450 tasi eronlik ekanligini ta’kidlab, qo‘mondonlarning ham yana o‘sha nasldan ekanligini yozgan.

Davlat armiyasi tizimi zamonaviy urushni yo‘naltirish va boshqarishga mos kelmasdi. Tinchlik o‘z davrida armiya muntazam harbiy mashg‘ulotlarga begona edi. Askar va ofitserlar o‘lgunlaricha xizmat qilishlari mumkin edi. Armiya ixtiyorida miltiq, nayza va rus harbiy kuchi qarshisida juda kam qolgan to‘plar soni bor edi. Rossiya doimiy ravishda qurollarini yangilashga harakat qilardi. Turkiston xonliklari esa Yevropadagi qurol texnikasidan uzoq qolgan edi. Askarlar urushda "o‘ldirgan faxriy, o‘lgan shahid bo‘ladi" deb ta’riflangan”[6]. Bu o‘rinda Amir Haydar davridagi amirlikdagi qo‘shin tuzilishi haqida ma’lumot berilgan. Jumladan amir Haydar o‘z doimiy armiyasini Qarshida tuzishga harakat qildi, chunki bu yerdagi harbiy garnizon eng kuchli edi. U tashkil etgan qo‘shinda zobit va harbiy boshliqlar sarkarda maqomiga ega bo‘lib, davlat hazinasidan maosh olar edilar. Oylik maoshlar qisman pul, qolgan qismi esa natural tarzda g‘alla bilan to‘lanar edi. Panjsad boshi o‘zining belgisiga – bayrog‘iga ega edi. Mingboshining yonida doimo bundan kattaroq bayroq bo‘lar edi va bu “tug‘” deb yuritilgan. Bunday bayroqqa ming kishilik guruh haqli bo‘lib, uning boshlig‘i hurmatli sanalar, ark darvozasidan otda o‘tishga haqli, boshqa zobitlar esa piyoda kirar edilar[7].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Арендаренко Г. Бухарские войска в 1880 г. // Туркестанский сборник. 297 том.

2. Худайқулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII –XX аср бошлари)).т.ф.д. дисс. – Қарши, 2021.
3. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқаруви тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди. II. 2019.
4. Seda Yilmaz Vurgun. XIX yüzyilda seyahatnamelerin işiği altinda Buhara emirliği (hanliği). 2013.
5. O‘sha asar.
6. Mehmet Emin Efendi, İstanbul’dan Orta Asya’ya Seyahat, Rıza Akdemir (hzl.), Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları, 1986.
7. O‘sha asar.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.
2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil). – 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.